

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 19th February, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

XORAZM TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA STAXIS O'SIMLIGI

AYRIM TURLARINING URUG' MAHSULDORLIGI

R. A. Eshmuratov

b.f.n., dotsent, Nukus davlat pedagogika intituti, Nukus.

D. R. Annamuratova

b.f.n., dotsent, Urganch davlat universiteti, Urganch.

M. K. Turaeva

Magistrant, Urganch davlat universiteti, Urganch.

S.A.Egamberdieva

Talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch.

Annotatsiya

Xorazm tuproq-iqlim sharoitida introduktsiya qilinayotgan yangi manzarali va dorivor Stachys turkumi turlaridan Stachys byzantina = S. lanata o'simligining urug' mahsuldorligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Stachys, S. Byzantina, introduktsiya, urug', mahsuldorlik, PUM, HUM,

O'simlikning urug' mahsuldorligi shu turning istiqbolini belgilovchi omil hisoblanadi. Har qanday turning biologik tavsifini berish uchun uning urug' mahsuldorligini aniqlash talab qilinadi. Bu esa mazkur turni tabiatda va iqlimlashtirilgan sharoitda qo'llash imkoniyatini ko'rsatadi [4].

Lamiaceae oilasiga mansub Stachys turkumining ko'pchilik turlari dunyoning ko'p mamlakatlarida turli maqsadlarda o'rganilgan. O'zbekistonda uchraydigan ayrim turlarining introduktsiya sharoitlaridagi xususiyatlari I.V. Belolipov [2], Eshmuratov R.A i [3]., Annamuratova D.R.... [1] va boshqa bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

O'rganilgan o'simliklar urug'larining ichki tomoni uchta qirrali, tashqitomoni qavariq shakldagi yong'oqcha. S. byzantina da urug'larining rangi jigarrang tusda bo'lib (1 - rasm), urug'larining uzunligi $3,2 \pm 0,11$ mm, eni $2,6 \pm 0,10$ mm ni tashkil etdi (1-jadval). 1000 dona urug'inining massasi S. byzantina da

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 19th February, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

$1,54 \pm 0,06$ g ga teng bo'ldi.

Biz adabiyotlardan *Stachys* turkumi turlarining urug' mahsuldorligito'g'risida ma'lumotlarni R.A.Eshmuratovning [2] Toshkent sharoitida o'stirilgan staxis o'simligi ustida o'tkazgan tajribalarida uchratdik. Shu sabab, Xorazm sharoitida 2021-2022 yillarda o'rganilgan o'simliklarda potentsial urug' mahsuldorligi (PUM) va haqiqiy urug' mahsuldorligi (HUM) ni aniqladik.



-rasm. *S. byzantina* (A) urug'larining ko'rinishi (mm)

1-jadval *Stachys* turkumi *S. byzantina* turi urug'larining morfologik ko'rsatkichlari

| O'simlik nomlari | Urug'larningrangj | O'lchamlari (mm) | | Urug'larningabsolyut massasi, g. |
|---------------------|-------------------|------------------|----------------|----------------------------------|
| | | uzunligi | eni | |
| <i>S. byzantina</i> | jigarrang | $3,2 \pm 0,11$ | $2,6 \pm 0,10$ | $1,54 \pm 0,06$ |

O'rganilgan o'simliklarning urug' mahsuldorligini o'rganish uchun *S. byzantina* turdan o'ntadan o'simlik olindi. Har bir o'simlikdagi to'pgullar soni, har bir to'pguldagi gullar soni hamda bir o'simlikdagi gullar soni (PUM) hisoblab chiqildi. SHuningdek, bir to'pguldagi mevalar soni, bir o'simlikdagi urug'lar soni (HUM) hamda urug' mahsuldorligi koeffitsienti hisoblandi.

Xorazm sharoitida *S. byzantina* ning bitta generativ novdasida 2021yil (n=10) PUM $518,2 \pm 20,8$ donani, HUM $233,7 \pm 9,4$ donani, mahsuldorlik koeffitsienti

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 19th February, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

(Mk) esa $43,1 \pm 2,8\%$ ni tashkil qildi. 2022 yil (n=10) PUM $730,8 \pm 27,1$ donani, HUM $366,8 \pm 16,5$ donani, mahsuldorlik koeffitsienti (Mk) esa $48,2 \pm 3,5\%$ ni tashkil qildi. (2-jadval).

2-jadval Xorazm sharoitida S. byzantina o'simligi bitta generativ novdasining o'rtacha urug' mahsuldorligi (n=10)

| O'simlik turi | Yillar | Urug' mahsuldorligi, dona | | Mahsuldorlik koeffitsienti, Mk % |
|---------------|--------|---------------------------|------------|----------------------------------|
| | | PUM | HUM | |
| S. byzantina | 2021 | 518,2±20,8 | 233,7±9,4 | 43,1±2,8 |
| | 2022 | 730,8±27,1 | 366,8±16,5 | 48,2±3,5 |

Ikki yillik tajriba natijalariga ko'ra, S. byzantina o'simligining haqiqiy urug' mahsuldorligi koeffitsienti yillar misolida 2022 yilda nisbatan ancha yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Urug'larning sifat ko'rsatkichlari yaxshi bo'lib, hasharotlar bilan zararlanganligi kuzatilmadi.

O'rganilgan staxis turlarida gullah jarayoni may oyining birinchidekadasidan boshlanib, iyunъ oyining oxirigacha davom etishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Annamuratova D.R, Eshmuratov R.A va Xorazm tuproq-iqlim sharoitida staxis byzantina o'simligini ko'paytirish usullari va hosildorligi. Xorazm Ma'mun akademiyasi Axborotnomasi. 2/2023. Xiva.
2. Belolipov I.V. Introduksiya travyanistyx rasteniy prirodnoy flory Sredney Azii (ekologo-introduktsionnyy analiz).—Tashkent: Fan, 1989.— 152 s.
3. Eshmuratov R.A. Turli introduksiya sharoitlarida stachys l. turkumiayrim turlarining bioekologik xususiyatlari: nomzodlik dissertatsiyasi. — Tashkent, 2012. — 145 b.
4. Raximova T.T. O'simliklar ekologiyasi va fitotsenologiya. Toshkent: Universitet, 2009. — 72 b.